

## BOSHLANG`ICH SINFLARDA DIDAKTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISH

O'ktamova Nigora

*Farg'ona viloyati Qo'shstepta Tumani*

*21-umumiy o'rta talim maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etishga o`rgatishi haqida, Zamonaviy ta'larning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun ilg'or texnologiyalardan foydalanish haqida, didaktik o'yinlardan foydalaniib o'quvchilarni darsga qiziqtirish va darsni mazmunli o'tkazish haqida so'z boradi.*

**Kalit so`zlar:** *o'quvchilar, dars, foydalanish, o'qitish, o'rgatish, qiziqtirish, shakllantirish, ta'lim berish, faoliyat.*

Barchamizga ma'lumki kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning asosiy faoliyati o'yinlarga qaratilgan. Bola uchun 45 daqiqa o'rnidan qimirlamay darsni tinglab, o'qituvchi tomonidan berilayotgan barcha ma'lumotlarni o'zlashtirish juda murakkab. Bunday murakkab jarayonni bola ongiga qiyinchiliklarsiz singdirish uchun o'yin va ta'lim faoliyatlarini chambarchas bog'lash zarur. Ya'ni dars jarayonida ta'limi va harakatga keltiruvchi o'yinlardan foydalanish, ta'lim samaradorligini biz istagan darajadanda yuqori bo'lishiga erishishimiz mumkin.

Dars jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish bolada erkin muloqotga kirishish, o'z fikrini erkin bayon etish hamda yangi bilimlarni, tasavvurni ishga solgan holda to'laligicha esda saqlab qolish imkonini beradi.

O'qitishdan ko'zlanadigan maqsad bu davlat ta'lim standartlarida belgilangan bilim va ko'nikmalarini o'quvchiga yetkazishdan iborat. Qachonki o'quvchi tomonidan bilim qabul qilinsa va tushunib yetilsa yoki o'quvchi malaka oshirish uchun mo'ljallangan topshiriqlarni amalda namoyish etib bera olsagina, o'qitish muvaffaqiyatlari kechadi deb hisoblasa bo'ladi. Ma'lumki, ta'lim olish jarayoni – bu ma'naviy va aqliy qobiliyatlarni tizimli rivojlantirib borish, bilim va tushunchalarni shakllantirish va olingan bilimdan foydalana olish qobiliyatini tarkib toptirishdan iborat jarayondir. Bu jarayon ta'lim oluvchining o'zi orqali yoki boshqa birov-ta'lim beruvchining ko'magida amalga oshirilishi mumkin.

Zamonaviy ta'larning yangi tizimi va mazmunini shakllantirish uchun ilg'or texnologiyalarni hamda o'quv-tarbiya jarayonining didaktik ta'minotini yaratish, ta'lim mazmunini inovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish kerak.

Boshlang'ich ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun darslarimizda ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiyasi texnologiyalarini, didaktik o'yinlar va interfaol usullardan foydalishimiz darkor.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun didaktik o'yinlar bilim olishning faollashtiruvchi ish turlaridan biri bo'lib o'quvchilarda tafakkur, og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini shakllantiradi. Didaktik o'yinlar o'qish darslarida o'quvchilarning qiziqishini o'stiruvchi vositalardan hisoblanadi. Didaktik o'yinlarning maqsadi o'quvchilarning fanga, ta'lim olishga, kitobga bo'lagn qiziqishlarini uyg'otishdir.

Didaktik o'yin bolalarda bilish jarayoniga jonli qiziqish uyg'otadi va ma'lummotlarni qabul qilishga yordam beradi. Bu o'yinlar bolalarning atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirishga, tartibga solishga, qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Didaktik o'yinlar o'quvchilar uchun qiyin bo'lgan bilim olish jarayonini yengillashtiradi. Ta'limiy o'yinlardan, mavzuga oid oddiy qiziqarli savol-javoblardan darsning ma'lum qismida foydalanish lozim. Boshqotirma, tez aytish kabi o'yinlar muntazam o'tkazib turilsa, o'quvchilarda ma'lum bir ko'nikmalar hosil bo'lib boradi. Dars jarayonida o'yinlarni to'g'ri tashkil etish va o'tkazishda vazifalar, qoidalar va ularning natijalarini tashkil qilishni aniq belgilab olish lozim. Masalan o'qish darslarida "So'zdan so'z yasash" o'yinini o'tkazish o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishga, so'z boyligini o'stirishga yordam beradi.

Didaktikaga asoslangan holda biz o'quvchilarga bilim beramiz. Ta'lim jarayonida turli usullardan foydalanamiz. Dars turini to`g'ri va muvaffaqiyatli o'tish uslubini ham to`g'ri tanlasak dars yaxshi natija beradi. Har bir darsni ko'rgazmali va texnika vositalari bilan o'tkazish joizdir. Shundagina dars bilimga boy o'tadi. O'qituvchi izlanuvchan bo'lishi, darslarni rang-barang usulda o'tishi kerak. Dars qiziqarli o'tishi uchun faqat ko'rgazma qurollardan foydalanib qolmay, o'yin elementlaridan, dars davomida harakatli daqiqalardan foydalanish lozim.

O'yin elementlaridan nafaqat darsda, balki darsdan tashqari ishlarda konferensiya darslarida foydalanish mumkin. Bu albatta boshlang'ich sinf o'quvchilariga mo'ljallangan. Ular bu yoshda o'yinqaroq, tez zerikuvchan, diqqati tarqoq bo'ladi. O'yin orqali ularni darsga, mavzuga jalb qila olishimiz mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari yosh bo'lgani uchun ularga sodda tilda tushunarli holda bilim berish va darslarda o'yin elementlaridan foydalanish lozim. Bola hayotining asosiy qismi o'yin bilan o'tadi. O'yinlar faqat didaktik vosita bo'lmay, bola hayotining asosiy shaklidir. Shuning uchun biz o'yining nozik tomonlarini egallamay turib, o'yin faoliyatini boshqarishini o'r ganmay turib oldimizda turgan mas'uliyatli vositalarni hal qila olmaymiz. O'yin orqali bola faoliyati mukammallahadi, ularni jismonan rivojlanishiga yordam beradi. O'yin jarayonida qiyinchiliklarni, to'siqlarni yengishga o'rgatib boradi. O'yin bolalar faoliyatining asosiy turi. Bola o'yin orqali materiallarning ko'rinishi, rangi, tuzilishi turli o'simlik va hayvonot olamidagi o'zgarishlarni anglaydilar.

**O'yin-** bu bolalar uchun o'qish, mehnat qilish va tarbiya vositalaridir. Biroq, darsning asosiy qismini o'yin darsiga aylantirib qo'ymaslik lozim. Bola hayotining asosiy turi o'yindir. "Bola uchun o'yin voqelik"- deb yozgan edi

K.D.Ushinskiy, binobarin, tevarak atrofdagi voqelikdir. U bolaga xususan tushunarli bo'lgani uchun qiziqdир, o'yin bolaga shuning uchun tushunarlik, unda qisman bolaning o'zi yaratgan narsa bor.

Bolalarning o'yin faoliyati maktabgacha yoshda paydo bo'lib, o'z taraqqiyotida oddiy taqlid qilishdan murakkab rolli o'yinga qadar bo'lgan yo'lni bosib o'tadi, bu o'yin dastlab kishilarning predmetlar bilan bog'liq faoliyatini, so'ngra o'ziga xos xususiyatlarni aks ettiradi. O'yin o'sib borayotgan bola organizmining zaruriy ehtiyojidir va u orqali bolalarda tashkilotchilik ko'nikmalari tarbiyalanadi. Ammo o'yin har qanday sharoitda ham o'yindir. Shunday o'yinlar ham borki, ular bolalarga mustaqillikni, oddiylikni, bir-biriga yordam berish hissini tarbiyalaydi. Bola uchun eng qiziqarli bo'lgan didaktik o'yinlar o'quvchilarni

darsga bo`lgan qiziqishini oshiradi. Shuning uchun ham dars qiziqarli va mazmunli o`tishi uchun iterfaol metodlar, didaktik o`yinlar va shunga o`xshash qiziqarli o`yinlar bilan darsni samaradorligini oshirish zarur.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROYHATI:

1. Abdullaeva.K, Safarova.R, Bikboeva.N. —Boshlang`ich ta'lim tushunchasi va Boshlang`ich ta'lim. - T.: 1998. - B. 2-9.
2. Abdullaeva K, Safarova R va boshqalar. —Boshlang`ich ta'lim standarti Boshlang`ich ta'lim. - T.: - 1998. - B. 9-6.
3. Abdurahmonova.N, Jumaev.M, O`rinboyeva – Boshlang`ich Sinflar Matematika va didaktik materiallarni o`qitish. Qo'llanma usullarini o'qitish. –T.: Istiqlol. 2004 yil,
4. Abdurahmonova.N, O`rinboyeva.L. — Matematika 2-sinf o'qishlar uchun usullari qo'llanma. Toshkent: - O'zbekiston